

DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATIDA OILANING O'RNI VA BUGUNGI AHAMIYATI

Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

2 kurs talabasi,

xabibjonovizzatbek22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida oilaning o'rni, oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Yangi O'zbekistonda mamlakatimizda oilaga, uni ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Oilani davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishning konstitutsiyaviy asoslari yaratildi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, huquqiy asoslar, oila instituti, hayotiy manfaatlar, jamiyat, davlat, oila, mahalla, ta'lim, tarbiya.

Аннотация. В статье научно проанализированы место семьи в гуманном демократическом правовом государстве и справедливом гражданском обществе в Республике Узбекистан, конституционно-правовые основы института семьи. В новом Узбекистане особое внимание уделяется семье и формированию правовой основы ее социальной защиты. Созданы конституционные основы социальной защиты семьи государством.

Ключевые слова: социальная защита, правовые основы, институт семьи, жизненные интересы, общество, государство, семья, соседство, образование, воспитание.

Abstract. The article scientifically analyzes the place of the family in a humane democratic legal state and a fair civil society in the Republic of Uzbekistan, the constitutional and legal foundations of the family institution. In the new Uzbekistan, special attention is paid to the family and the formation of the legal basis for its social protection. The constitutional foundations of social protection of the family by the state have been created.

Keywords: social protection, legal foundations, family institution, vital interests, society, state, family, neighborhood, education, upbringing.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oila haqida so'z yuritib, "Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o'z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo'g'indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog'ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun ishlashi shart. Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz, ko'p millatli butun xalqimiz bizdan rozi bo'ladi", - deya ta'kidlaydi [1]. Haqiqatdan ham Respublikamizda hozirgi kunga qadar oilaviy munosabatlarni tartibga solishga va mustahkamlashga qaratilgan Prezident Farmonlari, Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilinib, ular izchil amalga tadbiq etib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila to'g'risida alohida bob o'rnatildi va "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega" (63-modd) deb belgilandi [2,]. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustahkam bo'ladi va tez rivojlanadi. Zero, jamiyat asosi – oilaning moddiy va ijtimoiy jihatdan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e'tiboran har yili 15 may kunini "Halqaro oila kuni" sifatida nishonlashga qaror qilganligi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasining 2-qismi hamda Oila kodeksi 4-moddasining 1-qismiga binoan, oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. O'tgan vaqt davomida mamlakatimizda ayollar va o'sib kelayotgan yosh avlod sog'ligini mustahkamlashga yo'naltirilgan muntazam chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sog'lom oilani shakllantirish va sog'lomlashtirish ishlari o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Mazkur konstitutsiyaviy qoidani hayotga tatbiq etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, "Vasiylik va homiylik to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida", "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi kabi bir qator qonunlar qabul qilindi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat, deb belgilab qo'yildi. Yaqinda qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni 5-moddasida ham har tomonlama barkamol va sog'lom yosh avlodni shakllantirish, onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy hayotida to'laqonli ishtirok etishini ta'minlash, sog'lom oilani shakllantirish ijtimoiy sheriklikni amalga oshirish sohalaridan biri, deb e'tirof etildi.

Bir qator vazirliklar, xususan, Adliya, Sog'liqni saqlash, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, Xalq ta'limi va boshqa vazirliklarning asosiy vazifasi sifatida tegishli nikohni qayd etish, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish, oilaviy tadbirkorlik rivojlantirilishini rag'batlantirish, oila, ona, ota va bolaga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish dasturini amalga oshirish, bolalarni oila sharoitlarida tarbiyalashga oid psixologik-pedagogik metodlar joriy etish kabilar belgilandi. Mamlakatimizda har bir yangi yilga nom berishda bevosita va bilvosita oilaning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini oshirish, uning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy manfaatlarini ta'minlash, har bir oilaning farovonligini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Bulardan tashqari, Konstitutsiyada belgilangan oilaning davlat muhofazasida bo'lish huquqini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator zarur chora-tadbirlar, qarorlar qabul qilinmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida skrining, perinatal va ixtisoslashtirilgan tibbiy-ilmiy muassasalar faoliyat yuritayotgani, homilador ayollar davlat byudjeti mablag'lari hisobidan zarur polivitaminlar bilan ta'minlanayotgani sog'lom avlodni dunyoga keltirish, ona va bola salomatligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf qilishda muhim omil bo'layotir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida "Oila, onalik va

bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlari, ayollarning mehnat va turmush sharoitini yaxshilash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlarimiz ham izchil davom ettirilayotganligini, kam ta'minlangan oilalarda kamol topayotgan qizlarimizning bilim olish imkoniyatini kengaytirish uchun bu yil yangi tizim joriy etdik. Unga muvofiq, ushbu o'quv yilida oliy ta'lim dargohlarining kunduzgi bo'limlariga bunday qizlarimiz uchun davlat granti asosida 940 ta qo'shimcha o'rin ajratilganligini" ta'kidlab o'tgan [3].

Albatta, biz qurayotgan Yangi O'zbekiston yangi dunyo qarash insonparvarlik demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalanadi. Mamlakatimizda har bir oila har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar – yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning o'ziga xos urf-odatlarini, mahalliy va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, oila va yoshlarga oid qonunchilikni mustahkamlashga, ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashga, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan.

Har bir oila boshqalarga o'xshamaydigan o'z shaxsiy idividual qiyofasiga egadir. Oila a'zolarining ma'lumoti, ma'naviy talablari, iqtisodiy shart-sharoitlar turlicha bo'lishi sababli oiladagi kelib chiqadigan muammolar ham turlichadir.

Shaxsning jamiyatni faol ishtirokchisi sifatida shakllanishida oila muhim o'rin egallaydi. Bola oilada tug'ilib voyaga yetar ekan, yillar davomida oilada shakllangan munosabatlar tizimi bola psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi kattalarning o'zaro va farzandlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlari, ya'ni muloqoti, muomalasi, bolaga nisbatan munosabatlari orqali ta'sir ko'rsatadilar. Bu ta'sir pirovard natijada bolaning dunyoni anglash tarziga atrof-muhitga odamlarga munosabatini namoyon etishiga, hatto fikrlash tarziga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirni aynan bir xil yo'nalishdagi yo salbiy, yo ijobiy deb qarash noto'g'ri bo'lar edi. Chunki ma'lum sharoitlarda oilaviy ta'sirga bolaning beriluvchanlik darajasi uning bu ta'sirlarga munosabati qandayligiga bog'liq ravishda ta'sirning natijasi turlicha bo'lishi mumkin. Agar kattalar tomonidan ko'rsatiladigan tarbiyaviy ta'sirni mavjud ijtimoiy normativlar bilan taqqoslab berish imkoniyatiga ega bo'lsa, bola bunda o'zi uchun ijobiy deb hisoblangan andozaga ergashish ehtimoli yuqori bo'ladi. Lekin hayot tajribasi va kuzatishlar shundan dalolat beradiki oilaning tarbiyaviy kuchi, ayniqsa bolaning maktabgacha yosh davri yuqori bo'ladi va bu davrda kattalar tomonidan oilada bolaga ko'rsatiladigan ta'sir yetakchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shunday ekan, shaxs sifatлари hatto fikrlash tarzi shakllanishi bilan oiladagi tarbiyaviy ta'sir usullari o'rtasida bevosita bog'liqlik bor deyishimizga yetarlicha asosimiz bor.

Psixologiya fanida o'z isbotini topgan oiladagi tarbiya ko'rsatish usullarining asosiy ko'rinishlariga to'xtalar ekanmiz, ularni shaxs faolligini qo'llab quvvatlovchi yoki faollikni cheklovchi ta'sir sifatida ikki toifaga ajratish mumkin bo'ladi. Jumladan, hamkorlik va aralashmaslik usullari shaxs faolligini cheklovchi ta'sir usuli sifatida qaralishi mumkin.

Har qanday yangi fikrni tug'ilishi va uning rivojlantirilishi bu fikrning atrofdagilar tomonidan qanchalik qo'llab quvvatlanishiga bog'liq.

Ayniqsa, fikrning tan olinishida va e'tirof etilishi shaxsda fikrlashga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchayishiga olib keladi. Demak, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish oilada otalarning bolaga nisbatan qanday munosabatda bo'lishlari ham bevosita bog'liq.

Agar yuqoridagilarni hisobga oladigan bo'lsak, kattalar tomonidan o'z ustunligini ko'rsatishga va faqat o'z fikrini o'tkazishga asoslangan tarbiyani diktaktikasi bolaning faqatgina kattalar talabi va xohishi yo'nalishida fikrlashga majbur etadi.

Bu usulda kattalar tomonidan bolaga beriladigan ko'rsatma tanbehlar va xatto ba'zi hollardagi kamsitishlar bolaning fikr doirasini kattalar uchun ma'qul, kattalarga yoqadigan yo'nalish bilan cheklab qo'yadi. Bolaga o'ylab ko'rish biron-bir muammo ustida bosh qotirishga va uning yechimini mustaqil fikrlab topishga yo'l bermaydi bularning barchasi bolani mustaqil tafakkurdan mahrum etadi.

Xuddi shuningdek, tarbiyaning vasiylik praktikasida ham bola bajarilishi lozim bo'lgan barcha vazifalarini kattalar o'z zimmasiga olishi evaziga bolada mustaqil tafakkur qilishga bo'lgan ehtiyoj rivojlanmay qoladi.

Oilada ijobiy psixologik muhitni bir me'yorda saqlash oila a'zolarining barchasiga taalluqli hodisadir. Farzandlar tomonidan o'z fikrini erkin va mustaqil ifoda qilishi uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim.

1. Emotsional-psixologik madad, emotsional yordam berish shaxslarning hissiyotlarini barqarorlashtirish va muloqotga kirishishning psixologik terapeyasini o'tkazish;
2. Oila a'zolari o'rtasida yuksak manaviy muloqot jarayonini yuzaga kelishini ta'minlash;
3. Oila a'zolari barchasining o'rtasidagi muloqot jarayonida amalga oshirish lozim bo'lgan mas'uliyat va majburiyatlarni tartibga solish;

Oila a'zolarining bir-birlarini qo'llab-quvvatlovchi polifoniya yani samimiylik asosida muloqot darajasidan to'laqonli va samarali foydalanishga erishish. Oilaning funktsional xususiyatlari – bu oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning sifatiy taraflarini tavsiflaydi. Masalan,

1. Muloqot uslublari.
2. Har bir oilaga xos bo'lgan tartib-qoidalar.
3. O'zaro muloqot jarayonida kommunikativ to'siqlarning mavjudlari (yo'qligi).

Satir o'zining psixoterapevtik tajribasidan kelib chiqqan holda oilaviy munosabatlar jarayonida ko'zga tashlanadigan muloqotning 5 xil uslubini ajratadiki, ulardan to'rttasini u samarasiz deb ataydi, bittasi yetarli darajada tajriba va bilimga ega bo'lgan yetuk muloqot uslubiga kiradi. Dastlabki to'rttasi odatda muomala jarayonida biror muammo yoki to'siqni yengishga, o'zini ataylab yaxshi ko'rsatishga, kimgadir yoqishga yoki aksincha, kimnidir nimagadir ayblashga, tanqid qilishga xizmat qiluvchi uslublardir. Masalan, Xushomadgo'ylik uslubi kimlargadir ataylab yoqish maqsadida barcha oila a'zolarining xatti-harakatlaridan andoza olish, o'zini yerga urib bo'lsa-da, o'zgalar bilan kelishib yashash, bu bilan o'zini hamisha yerga urishni nazarda tutadi. Ayblovchi uslub doimo kimnidir nimagadir o'rgataverish, tanqid va nazorat qilish, faqat o'zidan kuchli odam oldidagina biroz o'zini tortish bilan bog'liq kommunikativ harakatlarni o'z ichiga oladi. Birinchi va ikkinchi uslublar go'yoki bir birini to'ldiradi [4, 68-b.].

Hisob-kitobli muomala uslubi shundayki, unga ko'ra odam hamisha va har qanday vaziyatda aniq, bexato harakatlar qilishga intiladi, chunki bunday odam adashmay, doimo "to'g'ri, benuqson" bo'lishga intiladi, shuning uchun bunday insonning harakatlari doimo sun'iyday, his-tuyg'ulari esa mazmunsiz, doimo tazyiq ostiga olinganday bo'ladi. Chetlashtirilgan muomala uslubi o'zini nima qilib bo'lsa-da o'zgalardan uzoqda, muayyan masofada tutishga qaratilgan, odamoviday boshqalarning nazaridan ham, ularning ta'siridan ham o'zini tortadi

(masalan, bizda odatda yangi kelinchak o'zini ana shunday tutadi).

Yetuk, adaptiv muomala uslubida esa inson hamisha o'z oiladoshlari bilan to'g'ri, samimiy, ochiq munosabatlarga tayyor bo'ladi. Bunday odam o'zining barcha fazilatlarini bilgani va saqlagani holda boshqalarning ham shaxs ekanligini, individualligini unutmagan tarzda muloqotga kirishadi. U gapirishni ham maromida eplaydi, o'zgalarni tinglashni ham biladi, shu sababli, unga qandaydir kommunikativ to'siqlar xatarli emas [5, 45-b.].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan tarzda bolani muloqot kilishga tayyorlab borilsa uni hayotga, turmushga tayyorlash oson kechadi. Ayniqsa, hayotiy qiyinchiliklar sharoitida qaror qabul qilish va yechimini topish imkoniyatini ijobiylashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, 25.01.2020 yil.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. –Toshkent, 2020.
4. Karimova V.M. Oila psixologiyasi : Ped. Oliygozlari uchun darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 68 b.
5. Антонов А.И., Сорокин С.А. Судьба семьи в России XXI века. – Москва, 2000 (гл.6 “Семья и здоровье”).